
Iste'molchilar huquqlari - himoyamizda

Fuqarolarning tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatiga tushgan murojaatlari ijobiy hal etilmoqda.

Shahartepa mahalla fuqarolar yig'ini, Susanbil ko'chasida yashovchi fuqaro N.A.ning murojaatida tuman elektr ta'minoti korxonasi tomonidan elektr energiyasi uchun 1 508 950(bir million besh yuz sakkiz ming to'qqiz yuz ellik) so'm qarzdorlik asossiz hisoblanganligi aytilib, shikoyat bayon qilingan.

Shikoyatda yozilishicha, majburiy ijro byurosi tuman bo'limidan iste'molchiga ogohlantirish xati berilgan. Unda mavjud qarzdorlikni besh kun muddat ichida ixtiyoriy to'lashi zarurligi, aks holda, yashash xonadoni elektr tarmog'idan uzib qo'yilishi yozilgan.

Iste'molchi N.A. elektr energiyasidan qarzi yo'qligini aytganda, majburiy ijro byurosi xodimi elektr tarmoqlari korxonasi nazoratchisining 2016 yil 20-sentyabrda tuzgan dalolatnomasida qarzdorlik ko'rsatilganini ta'kidlagan. Elektr tarmoqlari ma'lumot bazasidan olingan mazkur dalolatnoma nusxasida "xonadon o'rganilganda EXU ning texnik muxri yo'qligi aniqlandi" degan yozuv kiritilgan va xonadon egasi N.A.ning otasi N.N. imzosi qo'yilgan. Vaholanki, iste'molchining otasi N.N. dalolatnoma tuzilgan sanadan salkam uch yil oldin, ya'ni 2013 yil 21-avgustda vafot etgan.

Tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatida fuqaro N.A.ning murojaati atroflicha o'rganildi va qayta xatlov natijasiga ko'ra, noqonuniy tuzilgan dalolatnoma bekor qilindi.

Fuqarolar va iste'molchilarning huquqlarini, manfaatlarini odilona himoya qilish jamiyatimizning bosh maqsadidir.

Ma'rifatxon SAIDOVA,

Tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi

2019-12-20 13:09:15